

О‘ЗБЕКISTON REPUBLIKASIDA TO‘LOVGA QOBILIYATSIZLIK (BANKROTLIK) TIZIMIDA QONUNCHILIK ASOSLARINING TASHKIL TOPISH VA RIVOJLANISHI BOSQICHLARI TAHLILI

Husainova Sabina Abduqayum qizi

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti

Xalqaro beznis huquqi yo'nalishi magistranti

O'zbekiston Respublikasi, 100007 Toshkent shahri,

Mustaqillik shoh ko'chasi 54

Tel: +998975878108

Email: husainovasabina1808@gmail.com

Husainova Sabina Abduqayum qizi

Master's student of the direction International business law

University of World Economy and Diplomacy

100007, Republic of Uzbekistan, Tashkent, Mustakillik ave., 54

phone.:+998975878108 ; e-mail:husainovasabina1808@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu tatqiqotning maqsadi O'zbekiston Respublikasida to'lovga qobiliyatsizlik (bankrotlik) institutining huquqiy asoslarini rivojlantirish uchun qonunchilikka kiritilgan asosiy o'zgartishlarni tahlil qilish va ularning samaradorlik darajasini o'rganishdir. Maqolada tadqiqot maqsadini aniq ifoda etish uchun tarixiy-huquqiy hamda qiyosiy taqqoslash metodikalaridan foydalanilgan.

Annotation. The purpose of this research is to study the effective means of analyzing and evaluating legislative data for the development of the legal framework of the institution of insolvency (bankruptcy) in the Republic of Uzbekistan. Historical-legal and comparative comparison methods are used in the article to clearly express the purpose of the research.

Kalit so'zlar: To'lovga qobiliyatsizlik, bankrotlik, bozor iqtisodiyoti, tugatish taomili, sanatsiya, tashqi boshqaruv, kelishuv bitimi.

Keywords: Insolvency, bankruptcy, market economy, liquidation of debtor, rehabilitation, external management, debt agreement.

Mustaqillikkacha bo'lgan davrda to'lovga qobiliyatsizlik (bankrotlik) instituti fuqarolik va tadbirkorlik huquqiy munosabatlarda qo'llanilmas edi va bu sohadagi ayrim ishlar ma'muriy vositalar bilan hal etilar edi.¹ O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy va siyosiy mustaqillikka erishganidan so'ng bozor munosabatlari keng joriy etila boshladi. Mustaqillikning dastlabki yillarida ham respublikamizda to'lovga qobiliyatsiz huquq tizimi deyarli amal qilmagan edi. Buning sababi esa hali davlat

¹ Azizov.X. Bankrotlikni huquqiy tartibga solish. Toshkent: TDYU nashriyoti. 2018. -190 bet.

mulki to'liq xususiylashishga ulgurmaganligi bo'lib, korxonalarining to'lovga qobiliyatsizligi va bankrotlik masalalarini tartibga solishga ehtiyoj bo'lmagan. Biroq, bozor iqtisodiyotiga o'tishning o'ziga xos yo'nalishi va talabi davlatga qarashli bo'lgan mulkni xususiylashtirish va davlat tasarrufidan chiqarish ishlarini tezlashtirish edi. Shuning uchun, mustaqillikning birinchi yillaridan mulkni xususiylashtirish jarayonlariga katta e'tibor qaratildi va bosqichma-bosqich xususiylashtirish ishlari amalga oshirildi. Mulk xususiylashib mulkdorlar sinfi hosil bo'lishi bilan sekin-astalik bilan ko'p korxonalar va tashkilotlar muvaffaqiyatli faoliyat yuritdi. Ba'zilar esa ma'lum sabablarga ko'ra bozorda o'z salohiyatini namoyish eta olmadi. Oqibatda, korxonalarda iqtisodiy nochorlik ya'ni to'lovga qobiliyatsizlik muammolari va korxonalar o'rtasida debitorlik-kreditorlik munosabatlarida o'z vaqtida to'lovni amalga oshirmaslik holatlari vujudga kela boshladi. Va o'z-o'zidan to'lovga qobiliyatsizlik(bankrotlik) institutiga ehtiyoj sezildi. Umuman olganda Respublikamizda to'lovga qobiliyatsizlik(bankrotlik) huquqi insitutining yaratilishi o'ziga xos tarixiga ega, ushbu jarayon dastlab 1994-yilda bankrotlik to'g'risidagi ilk qonunning qabul qilinishi asosida boshlandi. O'tgan davr mobaynida bu borada sezilarli ishlar olib borildi va muhim natijalarga erishildi. Eng muhimi ushbu munosabatlarni tartibga solishning qonunchilik bazasi shakllantirildi. To'lovga qobiliyatsizlik(bankrotlik)insituti bosh manbasi sifatida birinchi navbatda O'zbekiston Respublikasining Konsitutitsiyasi normalari muhim ahamiyatga egadir.

Kuzatuvlar asosida to'lovga qobiliyatsizlik(bankrotlik) insitutining rivojlanish davrini shartli ravishda uch bosqichga bo'lishimiz mumkindir(2022-yilda "To'lovga qobiliyatsizlik to'g'risida"gi qonunning qabul qilinguniga qadar respublikamizda bankrotlik tizimida qonunchilik asoslarining rivojlanish tarixi tatqiqotchi olimlar tomonidan 2 bosqichga bo'lib o'rganilgan):

Birinchi bosqich mustaqillikdan keyingi 1991-yildan 2003-yilga qadar daavom etgan muddat bo'lib bu vaqt oralig'ida dastlab 1994-yilda bankrot tog'risidagi ilk qonun hujjati qabul qilindi va keyinchalik 1998-yilda unga yangi to'ldirishlar kiritilib yangi tahrirda qabul qilindi. 1994-yilda qabul qilingan dastlabki qonun hujjati 35 moddadan iborat edi, xolos. Lekin qonun amaliyoti bo'yicha mazkur yilda bironta ham bankrotlik ishi ko'rilmadi. 1995-yilda Qonun amaliyoti va bankrotlikni amalga kiritish bo'yicha Vazirlar Mahkamasining maxsus qarori chiqarildi va bu boradagi ishlar biroz jadallashdi. Shu yilda 47 ta bankrotlik holati bo'yicha ishlar ko'rib chiqildi. 1996-yil 11-dekabrda "Bankrotlik to'g'risidagi qonunni amalda qo'llash chora tadbirlari to'g'risida"gi Respublika Prezidentining maxsus farmoni sohadagi ishlarni yanada rivojlantirish imkonini berdi. 1998-yil 28-avgustda qonun yangi tahrirda qabul qilindi. U ko'plab moddalar bilan boyitildi. Xususan, ayrim turdagi qarzdorlarning bankrotligi to'g'risidagi normalar, bankrotlikka doir ish yurituvida qo'llanuvchi yangi taomil – tashqi boshqaruv qo'shildi va bu orqali kreditorlarning huquqlari

kengaytirdi. Shuningdek, qonunda yuridik va yakka tartibdagi tadbirkor bankrotligi alomatlari alohida ajratib ko'rsatildi.

1994-yilda qabul qilingan "Bankrotlik to'g'risida"gi qonuning ta'rifida ushbu qonunning asosiy vazifasi kreditorlarning da'volarini qondirish maqsadida xo'jalik yuritish subyektlari bo'lmish yuridik va jismoniy shaxslarni bankrot bo'lgan deb e'tirof etish shartlari va tartibini belgilab berishdan iboratligi haqida yozilgan bo'lsada, qonunda jismoniy shaxslarning bankrotligini tartibga solishga doir yetarli darajadagi aniq normalar mavjud emas edi.

Qonunning 1-moddasida ta'rifiga ko'ra, "xo'jalik yuritish subyekting bankrot bo'lishi deyilganda qarzdorning majburiyatlari mol-mulkidan oshib ketganligi sababli tovarlarga (ishlarga, xizmatlarga) haq to'lash yuzasidan kreditorlarning talablarini qondirishga qodir emasligi, shu jumladan budjetga va budjetdan tashqari fondlarga majburiy to'lovlarni ta'minlashga qodir emasligi tushuniladi. Kreditorlarning talablarini bajarish muddati boshlangan kundan e'tiboran xo'jalik yuritish subyekti uch oy mobaynida ularni bajar olmayotganligi yoki bajarishga qodir emasligining muqarrarligi sababli uning joriy to'lovlari to'xtatib qo'yilishi xo'jalik yuritish subyekti bankrot bo'lishining tashqi alomati" hisoblanadi. Ushbu moddaning yuridik hamda jismoniy shaxslarning bankrot bo'lishiga bergan ta'rifidan kelib chiqadigan bo'lsak u holda qarzdorning aktivlari qiymati uning bajarishi lozim bo'lgan majburiyatlari qiymatidan kam ekanligi hamda bu to'lovsizlik holatining uch oy muddatdan oshishi xo'jalik yurituv subyekting bankrot deb topilishi bilan yakunlanadi. B. Xudaybergenov ta'kidlaganidek, ushbu qonun asosida to'lovsizlik prinsipi yotardi va ishlar faqat *balance sheet testi* to'lovga qobiliyatsizlik asosida qo'zg'atilgan. 1998- va 2003-yillardagi O'zbekiston Respublikasining "Bankrotlik to'g'risida"gi qonun hujjatlaridan esa bu tartib chiqarib tashlangan. Amalda kuchda bo'lgan "To'lovga qobiliyatsizlik to'g'risida"gi qonunchilikda *Balance sheet testi* doimiy to'lovga qobiliyatsizlik sifatida aks ettirildi.²

1994-yilda kuchga kirgan qonunda to'lovga qobiliyatsiz qarzdorga nisbatan *iqtisodiy nochor* iborasi ishlatilib, bankrot deb topilgunga qadar korxonaning iqtisodiy-huquqiy vaziyatini ifodalashda keng foydalanib kelingan edi.³ Ushbu tartib keyinchalik bankrotlik hamda iqtisodiy nochorlik atamalarining yuridik adabiyotlarda hamda qonun hujjatlarida sinonim sifatida qo'llanilishi asosida davom etdi, xususan 1998-yilgi "Bankrotlik to'g'risida"gi qonunning 2-moddasi birinchi qismida, asosiy tushunchalar qatorida "bankrotlik" (iqtisodiy nochorlik) — xo'jalik sudi tomonidan e'tirof etilgan yoki qarzdor ixtiyoriy ravishda tugatilayotganida uning o'zi e'lon qilgan

² Xudaybergenov. To'lovga qobiliyatsizlikni huquqiy tartibga solishning o'ziga xos xususiyatlari: sanatsiya va bankrotlik: yur. fan. dok. diss. Toshkent, 2023. - B. 35.

³ Отахонов Ф.Х., Ибратова Ф.Б. Хўжалик судларида банкротлик ишларини кўришнинг ўзига хос хусусиятлари. Монография. – Т.: ТДЮИ нашриёти, 2013. – Б. 22.

qarzdorning pul majburiyatlari bo'yicha kreditorlar talablarini to'la hajmda qondirishga qodir emasligi, shu jumladan budjetga va budjetdan tashqari fondlarga soliqlar, yig'imlar va boshqa majburiy to'lovlarni ta'minlashga qodir emasligi shaklida ta'riflangan. Shuningdek, bankrotlikka berilgan ushbu ta'rif shakl va mazmunan 2003-yilda kuchga kirgan yangi tahrirdagi qonun matnida ham deyarli o'zgarishsiz qoldirilgan edi⁴.

Qonun, suddan tashqarida qo'llanuvchi tartib-taomillar hamda ish yurituvini tartibga soluvchi protsessual normalar va nihoyat bankrot qarzdorni tugatish va yoki u bilan kelishuv bitimini tuzish tartibini belgilovchi bir qator daastlabki modda va normalar to'plamidan tashkil topganiga qaramay, bozor iqtisodiyoti tizimida jadal rivojlanib borayotgan milliy iqtisodiyotda xo'jalik yurituv subyektlari hamda kreditorlarga tegishli mulk huquqini himoya qilish, sog'lom raqobat muhitini ta'minlash, rentabelligi past bo'lgan korxonalar faoliyatini qayta ixtisoslashtirish, modernizatsiyalash va yoki tugatish kabi vazifalarni amalga oshirish uchun yetarli darajada xizmat qilmadi. Bunga asosiy sabab esa Lopaeva fikriga ko'ra, qonun chiqaruvchi to'lovga qobiliyatsizlik jarayoni har bir bosqichi uchun maxsus individual tartibga solish mexanizmlarini ishlab chiqish o'rniga ularni yagona umumiy normalar vositasida tartibga solishga uringanligida edi.⁵ Shu bilan birga rivojlangan davlatlar tajribasidan ma'lumki jismoniy shaxslar, yakka tartibdagi tadbirkor hamda unitar korxonlar, shaharni tashkil etuvchi korxonalar va boshqa turdagi yuridik shaxslarning to'lovga qobiliyatsizligini tartibga solishda aynan bir xil usuldagi yondashuvlardan foydalanish o'zini oqlamaydi.

Natijada, "Bankrotlik to'g'risida"gi dastlabki qonunni yangi tahrirda ishlab chiqish zarurati tabiiy ravishda vujudga keldi. 1998-yil 28-avgust sanasidan boshlab 668-I-sonli O'zbekiston Respublikasining "Bankrotlik to'g'risida"gi qonuni kuchga kirdi. Mazkur qonun hajmi 1994-yilda qabul qilingan qonun hajmining qariyb to'rt barobariga teng bo'lib jami 133 ta moddalar jamlanmasidan iborat edi. Dastlabki qonundan farqli o'laroq mazkur qonun 3-moddasida bankrotlik alomatlarini yuridik shaxslar hamda jismoniy shaxslar misolida alohida belgilab bergan edi. Unga ko'ra, yuridik shaxsning pul majburiyatlari bo'yicha kreditorlar talablarini qondirishga va (yoki) majburiy to'lovlarni to'lash majburiyatini bajarishga qodir emasligi, agar tegishli majburiyatlar va (yoki) to'lov majburiyati yuzaga kelgan kundan e'tiboran olti oy davomida qarzdor tomonidan bajarilmagan bo'lsa, uning bankrotlik alomati deb e'tirof etiladi. Shuningdek, jismoniy shaxsning (tadbirkorlik faoliyatini yuridik shaxs tashkil etmagan holda amalga oshirayotgan shaxsning) pul mablag'lari bo'yicha

⁴ <https://lex.uz/docs/-955375?ONDATE=10.06.2003%2000#-958940> [bankrotlik (iqtisodiy nochorlik) – xo'jalik sudi tomonidan e'tirof etilgan, qarzdorning pul majburiyatlari bo'yicha kreditorlar talablarini to'la hajmda qondirishga va (yoki) majburiy to'lovlarni bo'yicha o'z majburiyatini to'la hajmda bajarishga qodir emasligi;]

⁵ Лопалева Н.В. Правовые последствия признания юридического лица банкротом: канд. юрид. наук. ...дис. Ташкент, 2006. -Б.9.

кредиторlar talablarini qondirishga va (yoki) majburiy to'lovlarni to'lash majburiyatini bajarishga qodir emasligi, agar tegishli majburiyatlar va (yoki) to'lov majburiyati ularni bajarish sanasi boshlangan paytdan e'tiboran uch oy davomida qarzdor tomonidan bajarilmagan bo'lsa, agar majburiyatlarning summasi unga tegishli mol-mulkning qiymatidan oshib ketgan bo'lsa, uning bankrotlik alomati deb e'tirof etiladi. Ushbu moddani tahlil qiladigan bo'lsak, uning yutug'i qarzdor yuridik hamda jismoniy shaxslarning to'lovga qobiliyatsizlik belgilarini aniq muddatlar asosida farqlab olish imkonini beradi, ammo yuridik va jismoniy shaxslarning majburiyatlar miqdoriga nisbatan aniq mezonli o'lchovning belgilanmaganligi bir qancha noqulayliklarni keltirib chiqaradi. Sababi, to'lovga qobiliyatsizlik hamda bankrotlik iqtisodiy xarakterga ega jarayondir, demak yuridik hamda jismoniy shaxslar faoliyat ko'rsatishi mobaynida kreditorlar hamda davlat oldidagi pul majburiyatlari va majburiy to'lovlarni amalga oshirishni bir necha oyga kechiktirishi mumkin, ammo shunga qaramay umumiy qarz miqdori qarzdorning aktivlarining atiga bir necha foiz qismini tashkil qilishi ham mumkin. Bunga o'xshash vaziyatlarda qarzni boshqa qonuniy usullar yordamida undirishni amalga oshirish mumkin bo'lib, bunday holatlarda kreditorlar tomonidan qarzdorga nisbatan bankrotlikka oid ish yurituvining qo'zg'atilishi ortiqcha ovvoragarchiliklarni keltirib chiqaradi.

Shuningdek, 1998-yilgi bankrotlik to'g'risidagi qonun sudgacha sanatsiya qilish, qarzdorni ixtiyoriy ravishda bankrot deb e'lon qilish, bankrotlik to'g'risidagi ishlarni xo'jalik sudida ko'rish, tashqi boshqaruv, kelishuv bitimi shuningdek qarzdor yuridik shaxslarning ayrim toifalari bankrotligi xususiyatlari, jismoniy shaxsning bankrotligi hamda bankrotlik taomilini soddalashtirishni amalga oshiruvchi hamda tartibga soluvchi normalar jamlanmasidan tashkil topgan edi. Tashqi boshqaruv hamda sudgacha sanatsiya qilish taomillariga doir normalarning qonun tarkibiga kiritilishi orqali qarzdor yuridik shaxsni sog'lomlashtirish hamda to'lov qobiliyatini tiklashning huquqiy asoslari yaratildi.

Qonunning 20-moddasiga ko'ra sudgacha sanatsiya qarzdorning bankrotligiga doir ish yuritish qo'zg'atilguniga qadar bankrotlikning oldini olish maqsadida qarzdorning muassislari hamda mol-mulki egasi tomonidan amalga oshirilishi mumkin. Sudgacha sanatsiya qilishning asosiy chora-tadbirlari sifatida quyidagilar belgilangan edi:

qarzdorlikni o'zaro hisobga olishni tashkil etish; to'lash muddati o'tkazib yuborilgan qarzlarni to'liq yoki qisman sotib olish; ishlab chiqarishni raqobatbardosh mahsulot chiqarishga moslab qayta ixtisoslashtirish; chetdan yuqori malakali mutaxassislarni jalb etish; xodimlarni tayyorlash va qayta tayyorlash; qarzdorning to'lov qobiliyati tiklanishi va faoliyatini davom ettirishidan manfaatdor bo'lgan yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan moliyaviy yordam ko'rsatish; qarzdorning faoliyatni davom ettirishi uchun qarzdor bilan kreditor (kreditorlar) o'rtasida kreditorlarga

to‘lanadigan to‘lovlar muddatini kechiktirish va (yoki) uni bo‘lib-bo‘lib to‘lash yoki qarzlardan siylov berish to‘g‘risidagi ahdlashuvga erishishga qaratilgan kelishuv;majburiy to‘lovlarni to‘lash va davlat kreditlarini qaytarishni sanatsiya muddatiga kechiktirish;qarzdor-yuridik shaxsni qayta tashkil etish va boshqa turdagi chora tadbirlar.Shuningdek sudgacha sanatsiya qilishni o‘tkazish uchun minimum o‘n ikki oydan maksimum yigirma to‘rt oygacha bo‘lgan muddat belgilandi.

Mazkur qonun 5-bobiga binoan tashqi boshqaruv kreditorlar yig‘ilishining qarori,qarzdor mol-mulki egasi yoki bankrotlik bo‘yicha davlat organlarining arizasi asosida xo‘jalik(iqtisodiy) sud tomonidan joriy qilingan. Qarzdorning to‘lov qobiliyatini tiklashda sudgacha sanatsiyalash taomilidan farqli ravishda tashqi boshqaruv tartib-taomili qo‘llanilishi oqibatida qarzdorning rahbari vazifalaridan chetlashtirilib, boshqaruv organlari vakolatlari tugatilar,qarzdorning ishlarini boshqarish tashqi boshqaruvchi zimmasiga yuklanar edi.Tashqi boshqaruv tartib-taomili qo‘llash muddati sudgacha sanatsiyalashni amalga oshirish bilan aynan bir xil o‘n ikki oydan yigirma to‘rt oygacha etib belgilandi.

1994-yilda qabul qilingan qonun tarkibidan tugatishga doir ish yurituvda kelishuv bitimini tuzishga doir bir necha normalar o‘rin olgan bo‘lsada,bu normalar kelishuv bitimini tuzishning zarurlari hamda ahamiyatini to‘la ifodalay olmadi,shuningdek qonunan qarzdor hamda kreditorlar o‘rtasida kelishuv bitimini faqatgina tugatishga doir tartib-taomil doirasidagina tuzish mumkinligi bu tartibdan bankrotlikka doir ish yurituvda amalda foydalanish imkoniyatlarini sezilarli tarzda chegaralagan edi.Qonunning 1988-yilgi navbatdagi tahririda kelishuv bitimiga doir normalar bir qadar takomillashtirildi.Xususan qonunga binoan,xo‘jalik sudi tomonidan bankrotlik to‘g‘risidagi ish yurituvining har qanday bosqichida qarzdorlar va kreditorlar o‘rtasida kelishuv bitimini tuzishga haqli deb belgilandi.Shuningdek qonunda kelishuv bitimining tuzish tartibi,shakli va mazmuni,kelishuv bitimining sud tomonidan tasdiqlanishi va yoki rad etilishining shartlari hamda oqibatlari,kelishuv bitimining haqiqiy emasligi va so‘ngida kelishuv bitimining bajarilmaslik oqibatlari ham maxsus normalar asosida belgilab qo‘yilgan edi.

Bu davrda to‘lovga qobiliyatsizlik insitutini tartibga solishda Prezident farmonlari hamda va Vazirlar mahkamasining qarorlaridan ham foydalanildi.O‘z navbatida,1998-yil 4-martda qabul qilingan “Xo‘jalik yurituvchi subyektlarning iqtisodiy nochorligi va shartnoma mohiyatlarini bajarilishi uchun mansabdor shaxslarning jaobgarligini kuchaytirish to‘g‘risida”gi,hamda 1999-yil 23-iyuldagi “Korxonalar bankrotligi va sanatsiyasi mexanizmini takomillashtirish to‘g‘risida”gi Prezident Farmonlari bilan birgalikda Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 26-iyuldagi 362-sonli “Korxonalarining bankrotligi to‘g‘risidagi qonunchilikni amalga oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar haqida”gi qarori huquqiy manbalar sifatida xizmat

qildi.⁶Shuningdek, “Bankrotlik to‘g‘risida”gi qonunni bir yo‘sinda qo‘llanilishini ta‘minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Oliy xo‘jalik sudi Plenumi tomonidan 1999-yil 16-iyulda O‘zbekiston Respublikasi “Bankrotlik to‘g‘risida”gi qonunini xo‘jalik sudlari tomonidan qo‘llashning ayrim masalalari to‘g‘risida”gi,Oliy xo‘jalik sudi Rayosatining 2000- yil 29-fevradagi “Bankrot deb e‘tirof etilgan korxonalarni tugatishga doir ish yuritishni amalga oshirish bo‘yicha sud amaliyotini umumlashtirish” to‘g‘risidagi qarorlari ushbu munosabatlarni tartibga solishda muhim ahamiyat kasb etdi.

Ikkinchi bosqich.2003-yil 24-aprelda O‘zбекистон Respublikasining “Bankrotlik to‘g‘risida”gi yangi tahrirdagi qonunining qabul qilinishi to‘lovga qobiliyatsizlik(bankrotlik) insitutining rivojlanishida ikkinchi bosqichni boshlab berdi.Qonun qazrlarini to‘lashga layoqatli bo‘lmagan qarzdorlarning to‘lov qobiliyatini tiklashni maqsad qilib qo‘ygan ko‘plab yangi qoidalarni o‘zida mujassamlashtirdi. Qonunga ikkita yangi bob kiritildi va ular yangi bankrotlik taomillarini o‘zida ifoda etdi: kuzatuv va sud sanatsiyasi, shuningdek, barcha bankrotlik taomillari sud boshqaruvchilari tomonidan amalga oshirilishi, sud boshqaruvchilari sud tomonidan tayinlanishi va nazorat qilinishi belgilandi.Shuningdek,qonunning 4-moddasida qarzdor yuridik shaxs,shaharni tashkil etuvchi korxonaga hamda yakka tartibdagi tadbirkor(yoki yakka tartibdagi tadbirkor maqomini yo‘qotgan jismoniy shaxs)larning bankrotlik alomatlaridan biri bo‘lgan qarz majburiyatlari hajmiga bazaviy hisoblash miqdorini birlik miqdor sifatida kiritilish asosida aniqlik kiritildi.Unga ko‘ra, qarzdor yuridik shaxsga nisbatan jami talablar bazaviy hisoblash miqdorining kamida uch yuz baravarini tashkil etsa, qarzdor shaharni tashkil etuvchi korxonaga hamda unga tenglashtirilgan korxonaga nisbatan bazaviy hisoblash miqdorining kamida besh ming baravarini tashkil etsa, qarzdor yakka tartibdagi tadbirkorga yoki yakka tartibdagi tadbirkor maqomini yo‘qotgan jismoniy shaxsga nisbatan esa bazaviy hisoblash miqdorining kamida yigirma barovarini tashkil etsa, qarzdorning bankrotlik alomatlari hisoblanar edi.

Ushbu qonun amalda bo‘lgan davrda yurtimizda bankrotlik institutini chuqurroq o‘rganish maqsadida chet ellik mutaxassislar va olimlar bilan yaqindan hamkorlik o‘rnatilib, ularning bu boradagi tajribasi va amaliyoti o‘rganildi. 2007 yilda Yaponiya xalqaro hamkorlik agentligi (JICA) bilan birgalikda O‘zbekiston Respublikasi Oliy xo‘jalik sudi hamkorligida “Bankrotlik to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuniga sharh tayyorlandi.⁷ Bu amaliy hamkorlik Respublikamiz Bankrotlik institutining nazariy- amaliy sohadagi muammolarini hal bo‘lishiga va

⁶ Do‘stov.U.N.Xo‘jalik yuritvchi subyektlarning bankrotligi.Toshkent:TDYI nashriyoti,2009.11-bet.

⁷ O‘zbekiston Respublikasining “Bankrotlik to‘g‘risida”gi qonuniga sharhlar / Mualliflar jamoasi: M.K.Azimov, N.V. Lopayeva, Z.S.Umarov va boshq.; JICA. – T.: “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyoti, 2007. – 640b

takomillashishiga sabab bo'ldi. Qonunchilik palatasi tomonidan 2019-yil 24-oktabrda O'zbekiston Respublikasining "Bankrotlik to'g'risida"gi qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida 594-sonli qonuni qabul qilindi. Natijada qonunchilikka bir qator tuzatishlar kiritildi. Xususan, bankrotlik alomati bo'lgan qarzdorga qo'yiladigan jami talablar miqdori yuridik shaxslarga nisbatan bazaviy hisoblash miqdorining 500 baravaridan 300 baravariga; maqomini yo'qotgan yakka tartibdagi tadbirkor yoki jismoniy shaxsga nisbatan 30 baravaridan 20 baravariga kamaytirildi. Davlat oldidagi pul majburiyatlari bo'yicha qarzi bo'lgan davlat ulushiga ega tashkilotlarni bankrot deb tan olish to'g'risidagi ariza bilan Davlat aktivlarini boshqarish agentligi (bankrotlik to'g'risidagi ishlar bo'yicha davlat organi) ham murojaat qilishi mumkinligi tasdiqlandi. Bir turdagi kreditorlar tushunchasi kiritildi.

Iqtisodiy sud tomonidan bankrotlik to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqish tezlashtirildi. Bunga ajratilgan muddat 2 oydan 1 oygacha qisqartirildi (qarzdorni bankrot deb topish to'g'risidagi ariza ish yurituviga qabul qilinganligi haqidagi ajrim chiqarilgan sanadan boshlab, tahr. izohi). Biroq ishlarning ko'rib chiqilishi, ilgarigidek, 2 oydan oshmaydigan muddatga uzaytirilishi mumkin (istisno holatlarda, tahr. izohi). Bunda korxonaning rahbariga yoki muassislariga (ishtirokchilariga) yoxud mulkdoriga nisbatan korxonani bankrotlikka olib kelgan harakatlari (harakatsizligi) uchun jinoyat ishi qo'zg'atilgan taqdirda bankrotlik to'g'risidagi ishni yuritish jinoyat ishlari bo'yicha sud tomonidan qo'zg'atilgan jinoyat ishi bo'yicha qaror qabul qilinguniga qadar to'xtatib turiladi.

Qonunda nazarda tutilgan alohida taomillarga taalluqli bir qator o'zgartirishlar kiritildi. Xususan, sud sanatsiyasi va tashqi boshqaruvni bankrotlik taomili sifatida emas balki to'lov qobiliyatini tiklash taomili sifatida qo'llanilishi belgilandi. Ular iqtisodiy sud tomonidan qo'llanilishi uchun birinchi va ikkinchi guruhdagi har bir kreditorlarning ko'pchilik ovozi talab etiladi. Iltimosnomalar qanoatlashtirilgan taqdirda, muvaqqat va sanatsiya qiluvchi boshqaruvchi lavozimiga nomzodlar sud boshqaruvchilari kasbiy birlashmalari tomonidan ham kiritilishi mumkin. Muvaqqat va sanatsiya qiluvchi boshqaruvchi kreditorga qarzdorning moliyaviy ahvoli va (yoki) o'z faoliyati to'g'risidagi axborotni 10 kunlik muddatda taqdim etishi majburiyati kiritildi.

Tugatish jarayoni bo'yicha:

- a) tugatishga doir ish yuritish muddati 1 yildan 9 oygacha qisqartirildi
- b) muddat ko'pi bilan uch oyga uzaytirilishi mumkin;
- v) muddatni uzaytirish uchun asos bo'ladigan quyidagi holatlar qayd etildi: iqtisodiy sud ishini yuritishda qarzdor yuridik shaxsning yoki uning kreditorlarining mulkiy manfaatiga daxl qiluvchi ishning mavjudligi; qarzdor yuridik shaxsning realizatsiya qilinmagan mol-mulki mavjudligi, bundan bankrotlik to'g'risidagi ishlarni tugatish uchun asoslar mavjud bo'ladigan hollar mustasno; soxta bankrotlik, bankrotlikni yashirish va qasddan bankrotlikka olib kelish, qarzdorning mansabdor

shaxslari tomonidan qarzdor yuridik shaxsning va uning kreditorlarining manfaatlariga qarshi boshqa huquqbuzarliklar yoki jinoyatlar sodir etilganligi alomatlari bo'yicha jinoyat ishining mavjudligi; tugatish boshqaruvchisining tugatish taomilini o'tkazish natijalari to'g'risidagi hisobotini tasdiqlash rad etilganligi to'g'risidagi iqtisodiy sudning ajrimida ko'rsatilgan qonun hujjatlari buzilishlarini bartaraf etish zarur bo'lganda; bankrotlik to'g'risidagi ishlar bo'yicha davlat organi tomonidan aniqlangan qonun hujjatlari buzilishlarini bartaraf etish zarur bo'lganda;

g) qarzdorga nisbatan uning faoliyatini to'xtatmasdan tugatishga doir ish yuritish amalga oshirilganda, biroq ikki hisobot choragi yakunlariga ko'ra faoliyatdan ketma-ket zarar ko'rilgan bo'lsa, bunday ish yuritish maqsadga muvofiq emas deb topiladi va iqtisodiy sud tugatishga doir ish yuritishning umumiy taomiliga o'tish to'g'risida ajrim chiqarishi mumkin. Shuningdek sud sanatsiyasi ko'pi bilan 24oy muddatga joriy etilishi to'g'risidagi o'zgartirishlar kiritilgan edi.

Uchinchi bosqich. 2022-yil 14-aprelida "Bankrotlik to'g'risidagi "qonun o'z kuchini yo'qotib va uning o'rniga shu sanadan boshlab "To'lovga qobiliyatsizlik to'g'risidagi"qonun hujjati kuchga kirishi bilan ushbu insitut shakllanishida uchinchi bosqich boshlandi. Endilikda qarzdorga nisbatan bankrotlik taomili asosida emas balki to'lovga qobiliyatsizlik taomili asosida ish qo'zg'atiladi. "Bankrotlik" va "To'lovga qobiliyatsizlik" atamaları ba'zi manbalarda sinonim so'zlar sifatida foydalanilsada ular qarzdorning iqtisodiy vaziyatining turli bosqichlarini ifodalaydi. To'lovga qobiliyatsizlik tushunchasi bankrotlik tushunchasidan bir qadar kengroq tushunchadir. Umuman olganda, to'lovga qobiliyatsizlik bu yuridik va jismoniy shaxslar faoliyatida bir bosqich sifatida, belgilangan muddatga qadar o'zining pul majburuyitlari va majburiy to'lovlarini to'liq yoki qisman bajara olmasligik holatida ekanligini ifodalaydi. To'lovga qobiliyatsizlik holati sud tomonidan ish qo'zg'atilishidan oldin paydo bo'ladi va bu holat qarzdor bankrot deb topilib, davlat ro'yxatidan chiqarilguncha yoki qarzdor to'lov qobiliyati tiklanguncha saqlanib turadi. Bankrotlik jarayon sifatida qarzdor mol-mulkini sotishdan tushgan pul mablag'lari orqali kreditorlar talablarini qanoatlantirishda ifodalanadi va shu tarzda to'lovga qobiliyatsizlik bartaraf qilinadi. Bankrot deb topilgan barcha qarzdorlar to'lovga qobiliyatsiz hisoblansa, to'lovga qobiliyatsiz qarzdorlarning barchasi ham bankrot deb topilmasligi mumkin⁸Sodda qilib aytganda bankrotlik bu to'lovga qobiliyatsizlikning doir qo'zg'atilgan ishning oqibatlaridan biri bo'lib, to'lovga qobiliyatsizlik doimiy ravishda ham bankrotlik bilan yakunlanavermaydi qarzdorning to'lovsizlik holati bartaraf etilishi va qarzdor o'z faoliyatini davom ettirib ketish ehtimoli doim mavjuddir.

⁸ Xudaybergenov B.B. To'lovga qobiliyatsizlikni huquqiy tartibga solishning o'ziga xos xususiyatlari: sanatsiya va bankrotlik: yur. fan. dok. diss. Toshkent, 2023. - B. 21.

Qarzdorga nisbatan bankrotlik to'g'risidagi ishning qo'zg'atilishiga asos bo'luvchi alomatlar mavjud bo'lganidek, to'lovga qobiliyatsizlikning ham o'z alomatlari mavjuddir hamda ular maxsus normalar bilan yangi qonunda belgilab qo'yildi. Qarzdorga nisbatan to'lovga qobiliyatsizlikka doir ish yurituvchi ikki turdagi to'lovga qobiliyatsizlikdan birining alomatlari aniqlangan holda qo'zg'atiladi. Qonunning 5-moddasida to'lovga qobiliyatsizlikning alomatlari sifatida: vaqtincha to'lovga qobiliyatsizlik - agar tegishli majburiyatlar yuzaga kelgan sanadan e'tiboran uch oy ichida qarzdor tomonidan bajarilmagan bo'lsa, shaharni tashkil etuvchi korxonalar hamda unga tenglashtirilgan korxonalar tomonidan esa olti oy ichida bajarilmasa, sudga murojaat etish sanasida qarzdorning pul majburiyatlari bo'yicha kreditorlar talablarini qanoatlantirishga va (yoki) soliqlar hamda yig'imga bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishga qodir emasligi hamda doimiy to'lovga qobiliyatsizlik — agar sudga ariza berish sanasidagi va ariza berilgan yilning boshidagi hisobot davrida, agarda ariza yilning birinchi choragida berilgan bo'lsa, o'tgan yilning boshidagi hisobot davrida qarzdorning majburiyatlari uning aktivlari qiymatidan oshib ketgan bo'lsa, ushbu alomatlar yuzaga kelganda qarzdor, qarzdorning rahbari yoki kreditorlar tomonidan sudga qarzdorga nisbatan to'lovga qobiliyatsizlik to'g'risidagi ish ochishni so'rab ariza berishi mumkinligi belgilab qo'yildi. Shuningdek, qonunga muvofiq qarzdorga nisbatan to'lovga qobiliyatsizlikning boshqa tartib-taomili qo'llanilishi kerak bo'lgan hollardan tashqari holatda, kuzatuv tartib-taomili sud qarzdor — yuridik shaxsga nisbatan to'lovga qobiliyatsizlik to'g'risida ish qo'zg'atish haqidagi arizani ish yuritishga qabul qilgan sanadan e'tiboran joriy etiladi.

Qonunchilikka kiritilgan yana bir muhim o'zgartirishlardan biri bu endilikda jismoniy shaxslarga nisbatan ham to'lovga qobiliyatsizlik to'g'risidagi ishning qo'zg'atilishi va ularning bankrot deb topilishi bo'ldi. Unga muvofiq qarzdor jismoniy shaxsning pul majburiyatlari bo'yicha kreditorlar talablarini qanoatlantirishga va (yoki) soliqlar hamda yig'imga bo'yicha o'z majburiyatini to'liq hajmda bajarishga qodir emasligi, agar tegishli majburiyatlar va (yoki) to'lov majburiyatlari yuzaga kelgan kundan e'tiboran uch oy ichida qarzdor jismoniy shaxs tomonidan bajarilmagan hamda qarzdor jismoniy shaxsga nisbatan talablar bazaviy hisoblash miqdorining kamida ikki yuz barobarini tashkil etsa, ushbu alomatlar qarzdor jismoniy shaxsning to'lovga qobiliyatsizlik to'g'risidagi ish qo'zg'atishini so'rab sudga murojaat etishiga asos bo'la oladi. Bunga qadar jismoniy shaxslar bilan bog'liq bo'lgan sud ishlari fuqorolik sudlarida ko'rilgan bo'lsada, endilikda jismoniy shaxslarning to'lovga qobiliyatsizligi doir ishlar iqtisodiy sudlar tomonidan ko'rib chiqiladi.

Xulosa qilib aytilganda, so'ngi o'tti yil mobaynida respublikamizda to'lovga qobiliyatsizlik tizimini shakllantirish bir necha bosqichlarda amalga oshirildi, milliy qonunchiligimizda to'lovga qobiliyatsizlik tizimining bankrotlik hamda sanatsiyalash subinsitutlarining jamlanmasi sifatidagi tan olinib, huquq insituti sifatida shakllanib

borish jarayoni “To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida”gi qonunning qabul qilinishi asosida yanada jadallashdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining “To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida”gi Qonuni // lex.uz.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Bankrotlik to‘g‘risida”gi Qonuni // lex.uz.
3. Xudaybergenov B.B.To‘lovga qobiliyatsizlikni huquqiy tartibga solishning o‘ziga xos xususiyatlari: sanatsiya va bankrotlik:yur.fan.dok.diss.Toshkent,2023.-B.21.
4. O‘zbekiston Respublikasining “Bankrotlik to‘g‘risida”gi qonuniga sharhlar / Mualliflar jamoasi: M.K.Azimov, N.V. Lopayeva, Z.S.Umarov va boshq.; JICA. – T.: “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyoti, 2007. – 640b
5. Do‘stov.U.N.Xo‘jalik yuritvchi subyektlarning bankrotligi.Toshkent:TDYI nashriyoti,2009.11-bet.
6. Лопаева Н.В.Правовые последствия признания юридического лица банкротом:канд.юрид.наук. ...дис.Ташкент,2006.-Б.9
7. Отахонов Ф.Х., Ибратова Ф.Б. Хўжалик судларида банкротлик ишларини кўришнинг ўзига хос хусусиятлари. Монография. – Т.: ТДЮИ нашриёти, 2013. – Б. 22.
8. Azizov.X. Bankrotlikni huquqiy tartibga solish.Toshkent:TDYU nashriyoti.2018.-190 bet
- 9.<https://lex.uz/docs/-955375?ONDATE=10.06.2003%2000#-958940> [bankrotlik (iqtisodiy nochorlik) – xo‘jalik sudi tomonidan e’tirof etilgan, qarzdorning pul majburiyatlari bo‘yicha kreditorlar talablarini to‘la hajmda qondirishga va (yoki) majburiy to‘lovlar bo‘yicha o‘z majburiyatini to‘la hajmda bajarishga qodir emasligi;]